



O‘ZBEK TILIDA “TARIXIY O‘TGAN ZAMON” NING MORFOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ismonaliyev Jamoliddin Qo‘ldashaliyevich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi o‘tgan zamonlar tizimiga xos bo‘lgan -gan affiksi bilan hosil qilinuvchi, aksariyat manbalarda **tarixiy o‘tgan zamon** deb nomlangan zamon haqida so‘z yuritiladi. Bu zamonning morfologik xususiyatlarini ochib berish bilan birqatorda, badiiy asarlardan olingan empirik dalillar asosida uning semantik xususiyatlari ham ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fe‘l, zamon, affiks, fonetik o‘zgarish, tasviriy xarakter.*

Abstract: *This article discusses a tense of the Uzbek Past tense system formed by the suffix “-gan” and referred to as the “historical past tense” in most sources. In addition to outlining the morphological characteristics of this tense, the study also elucidates its semantic properties based on empirical evidence from literary works.*

Key words: *verb, tense, affix, phonetic change, descriptive character.*

O‘tgan zamonning yana bir shakli **-gan** affiksi yordamida hosil qilinadi. **-gan** affiksi bilan hosil qilinadigan bu o‘tgan zamon fe‘l shakli aksariyat o‘zbek tilshunosligiga oid manbalarda **tarixiy o‘tgan zamon** deb nomlanadi. **Tarixiy o‘tgan zamon** fe‘llarning o‘zagiga **-gan** qo‘shib yasalgan o‘tgan zamon sifatdoshi va shaxs-son ma‘nolarini ifodalovchi maxsus affikslarni qo‘shish orqali yasaladi:

Birlik	Ko‘plik
1. kel + gan + man	1. kel + gan + miz
2. kel + gan + san	2. kel + gan + siz
3. kel + gan + (Ø)	3. kel + gan + lar

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan **-man**, **-san**, **-miz** kabi shaxs-son qo‘shimchalari **men**, **sen**, **biz** singari olmoshlarning fonetik o‘zgarishi natijasida affikslashganini ko‘rishimiz mumkin.

Bu fe‘l shaklining inkor shaklini hosil qilishda **-ma** inkor affiksidan tashqari **emas**, **yo‘q** kabi so‘zlar ham ishlatilishi mumkin:





Birlik	Ko'plik
1. kel + gan +emas +man	1. kel + gan +emas+miz
2. kel + gan +emas+san	2. kel + gan +emas+siz
3. kel + gan +emas+(Ø)	3. kel + gan +emas +lar

Birlik	Ko'plik
1. kel + gan +im +yo'q	1. kel + gan +imiz+ yo'q
2. kel + gan +ing+ yo'q	2. kel + gan +ingiz+ yo'q
3. kel + gan +i+ yo'q	3. kel + gan +lari+ yo'q

J.Jo'rayeva *Tarixiy o'tgan zamonni izohlashda* bu zamonda ifodalangan vaqt ma'nosi o'tgan zamon aniqlik fe'lidagiga nisbatan uzoqroq bo'ladi¹ degan fikrni keltirib o'tadi:

G'arib kulbasi esa garchi sulton Mahmud G'aznaviy qasrlari bilan tenglasha olmasa ham, dovrug'i butun dorus-saltanatga ketgan. (O.Yoqubov, Ko'hna dunyo.)

Bu misoldagi “*dovrug'i butun dorus-saltanatga ketgan*” jumlasini orqali bu kulbani butun poytaxtga mashhur bo'lganiga ancha bo'lganini tushunish mumkin. *Tarixiy o'tgan zamon* va *o'tgan zamon aniqlik fe'lini* qiyoslaydigan bo'lsak, *o'tgan zamon aniqlik fe'lida* ifodalangan ish-harakati yaqindagina amalga oshgan bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, quyidagi misolda “keldim” fe'li harakat yaqindagina amalga oshgani, ya'ni yaqinda kelganini ifodalab kelmoqda:

– Poshsha oyimlarni ko'rgani keldim! – dedi bahaybat qomatiga uncha mos kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib. (O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari).

Demak, **-di** fe'l shakli ifodalagan ma'no nisbatan qisqaroq vaqtga, **-gan** fe'l shakli ifodalagan ma'no nisbatan uzoqroq vaqtga ishora qiladi.

A.Hojiyev “Fe'l” kitobida keltirishicha, agar harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatuvchi *kecha, o'tgan yili* kabi so'zlar bo'lmasa, **-gan** affiksi bilan yasaluvchi formada harakatning bajarilish vaqti doim nisbatan uzoqqa (ilgariga) oid bo'ladi:

¹ Абдурахмонов Ф. (Умумий тахрир) Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. —Б.289 (Бу асарнинг “Феъл замонлари” бўлими Ж. Жўраева томонидан ёзилган).



keldi-kelgan, uyg'ondi-uyg'ongan, uylandi-uylangan². Bundan ma'lum bo'ladiki "keldi" so'zi paytni ko'rsatuvchi vositalarsiz qo'llanganida "yaqinda keldi", "kelgan" so'zi esa, "ancha oldin kelgan" ma'nolarini ifodalaydi, ammo payt ravishi vazifasidagi yordamchi vositalar qo'llanganida ularning ikkisini ham qo'llash mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Qiyoslang: *O'tgan yili rejani to'liq bajardi-O'tgan yili rejani to'liq bajargan*. Bu misollarda "o'tgan yili" yordamchi vositasi bo'lmaganida, bu ikki misolda vaqt tafovuti yuzaga kelgan bo'lar edi: *bajardi-yaqinda, bajargan-ancha oldin*.

J.Jo'rayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida (1966) ***o'tgan zamon aniqlik felidan*** farqli ravishda ***tarixiy o'tgan zamon fe'li*** tasviriy xarakterga ega bo'lgan nutqda qo'llanishi va asosiy e'tibor harakatning o'ziga emas, balki uning natijasiga qaratilishini³ bayon qiladi:

Oftob botib ketgan. Nimqorong'ilik cho'kkan, havoda jo'xori kabob hidi kelardi. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi.) Odamlar dod ovozig a o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi...(A.Qahhor. O'g'ri.) ...Avtobus ichi dim. Benzin isi ter hidiga aralashib ketgan. Derazadan tashqariga tikilgancha o'y surib ketyapman. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi.)

Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, ***tarixiy o'tgan zamon feli*** sodir bo'lgan harakat natijasidagi hozirgi holatni tasvirlab kelmoqda.

Shuningdek, J.Jo'rayeva ***tarixiy o'tgan zamon fe'li -dir*** affiksi qo'shib qo'llanganida, gumon ma'nosini ifodalab berishini ham ko'rsatib o'tadi⁴. Quyidagi misollarda "poyloqchilik qilgandir" yoki "ko'z oldiga... kelgandir" kabi jumalarda gumon ma'nosi yaqqol sezilib turibdi:

Anavi daraxtga suyanib turgan bola katta o'g'rilarga qo'shilgan. Katta o'g'riliklar bo'layotgan damda balki u shu holda - daraxtga suyanib poyloqchilik qilgandir? Balki hozir uning ko'z oldiga orqa kuragi ostiga pichoq sanchilgan qorovul kelgandir? (T.Malik, Alvido...bolalik.)

² Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.136.

³ Абдурахмонов Ф. (Умумий тахрир) Хозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966. –Б.289.

⁴ Абдурахмонов Ф. (Умумий тахрир) Хозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966.–Б.289.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов Ғ. (Умумий таҳрир) Ҳозирги ўзбек адабий тили.— Тошкент: Фан, 1966.
2. Ҳожиёв А . Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.
3. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
4. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2018.
6. Abdulla Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
7. Tohir Malik. Alvado...bolalik. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.